

Gross Insurance jamoasining korporativ kechasi



Jamoa ruhi - jamoamizning o'ziga xos ajralib turadigan xususiyatidir.
Hamkasblar bilan nafaqat ish kunlari, balki ishdan xoli vaqtni ham o'tkazish naqadar ajoyib.

Korporativ kecha Osio Grand restoranida bo'lib o'tdi. Kechaning rasmiy qismida o'tgan yil yakunlari haqida to'xtalib o'tildi, shuningdek 2019 yilga mo'ljallangan rejalar e'lon qilindi. Bunda 15ta nominatsiyalar bo'yicha mukofotlash marosimi bo'lib o'tdi. Quyida ayrim nominatsiyalar va ular bo'yicha g'oliblar keltirilgan:

- Sotuvlar yetakchisi - Bosh Anderrayting markazi.
- Mister "Filialning eng yaxshi rahbari" - Eshonqulov Farid Yarashevich - Qashqadaryo filiali.
- Miss "Filialning eng yaxshi rahbari" - Saidova Inobat Hurmatovna - Urganch filiali
- Yilning eng yaxshi mutaxassisi - Yaxyoyev Ne'mat Jo'rayevich - Sug'urta mahsulotlari markazi

Har bir xodim to'liq bir ish yiliga a'lo kayfiyat va g'ayratga ega bo'ldi.

"Yaxshi dam - mehnatga hamdam" - ajoyib korporativimizning shioriga aylandi.

21-02-2019

